




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi




So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayapti.

Jumladan, 2025- yil 1- fevral holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 10 874 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 8 795 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 21 539 ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,3 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiylumotlar (1- fevral holatiga)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
(2025- yil yanvar oyida)**


2025- yil yanvar oyida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 150 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 43,3 foiz, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 14,0 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 9,3 foiz, hududlar kesimida eng ko'p Guliston shahrida – 29,3 foiz, Mirzaobod – 13,3 foiz, Sirdaryo – 12,7 foiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**




(2025- yil 1- fevral holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2025- yil 1- fevral holatiga 10 874 tani tashkil etdi, ulardan 8 860 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 30,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 16,2 foiz, sanoat – 9,8 foiz, qurilish – 6,8 foiz, hududiy kesimda esa eng ko'pi Guliston shahrida – 24,6 foiz, tumanlardan Sirdaryo – 12,4 foiz, Sardoba – 8,9 foiz, Boyovut – 8,7 foiz va Mirzaobodda – 8,4 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**




**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



(2025- yil yanvar oyida)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2025- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 145 ta bo‘lib, shundan mikrofirmalar va kichik korxonalar 145 tani tashkil etdi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Guliston sh.	43
Mirzaobod	19
Sirdaryo	18
Sayxunobod	12
Oqoltin	11
Sardoba	11
Boyovut	9
Yangiyer sh.	8
Xovos	6
Guliston	6
Shirin sh.	2

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- fevral holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025- yil 1- fevral holatiga 8 860 tani tashkil etdi, ulardan 8 795 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 19,7 foiz, sanoat – 12,0 foiz, qurilish – 8,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,8 foiz, tashish va saqlash – 3,2 foiz, axborot va aloqa – 1,7 foiz, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,4 foiz, boshqa turlari – 9,1 foiz.


Yillar kesimida soni
(birlikda)



Hududlar kesimida soni
(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)




(2025- yil yanvar oyida)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2025- yil yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2024- yilning mos davriga nisbatan 13 tadan 14 taga (o‘sish 1 taga), qurilish – 5 tadan 9 taga (o‘sish 4 taga) ko‘paydi.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**




**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**




(2025- yil 1- fevral holatiga)

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Guliston shahrida (24,1 foiz), Sirdaryo (12,5 foiz), Sardoba (9,6 foiz) va Mirzaobod (8,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 54,8 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



2- BO'LIM. KORXONA VA TASHKILOTLARNING IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2025- yil 1- fevral holatiga)


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Sardoba (20,2 foiz), Mirzaobod (16,3 foiz), Oqoltin (11,5 foiz) va Sayxunobod (11,0 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida soni
(birlikda)

Sardoba	356
Mirzaobod	286
Oqoltin	203
Sayxunobod	194
Sirdaryo	173
Boyovut	166
Guliston	155
Xovos	117
Guliston sh.	67
Yangiyer sh.	28
Shirin sh.	14

Yillar kesimida soni
(birlikda)



(2025- yil 1- fevral holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxona va tashkilotlarning 9,8 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 92,4 foizini ishlab chiqarish sanoati, 5,3 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,9 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Guliston sh.	222
Sirdaryo	188
Yangiyer sh.	128
Boyovut	97
Mirzaobod	89
Sayxunobod	84
Xovos	77
Guliston	61
Sardoba	52
Oqoltin	43
Shirin sh.	24

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2025-yil 1-fevral holatiga)


O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 51,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 20,4 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 28,2 foiz ulushni tashkil etdi;

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Guliston sh.	282
Mirzaobod	63
Yangiyer sh.	63
Sirdaryo	62
Guliston	49
Boyovut	44
Sayxunobod	41
Oqoltin	37
Shirin sh.	33
Xovos	33
Sardoba	33

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



(2025- yil 1- fevral holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 3 351 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 62,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 29,6 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 8,4 foiz ulushni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Guliston sh.	931
Sirdaryo	432
Sardoba	306
Guliston	281
Boyovut	278
Yangiyer sh.	272
Mirzaobod	209
Oqoltin	202
Sayxunobod	182
Xovos	173
Shirin sh.	89

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



2 080 Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

282 Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

993

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2025- yil 1- fevral holatiga)


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025- yil 1- fevral holatiga 601 taga yetib, ularning 598 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosiy faoliyati hisoblanib, 2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,3 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 95,7 foiz ulushini tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



575 Oziq-ovqat va
ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar



Yashash bo'yicha
xizmatlar

26

(2025- yil 1- fevral holatiga)

2025- yil 1- fevral holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 70,2 foizini;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 26,1 foizini;

Ko'rsatuvlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,7 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Guliston sh.	63
Boyovut	19
Yangiyer sh.	17
Sirdaryo	13
Guliston	10
Shirin sh.	9
Xovos	9
Mirzaobod	7
Oqoltin	6
Sayxunobod	4
Sardoba	4

Yillar kesimida soni

(birlikda)



Kompyuter dasturlashtirish,
maslahat berish va boshqa
yordamchi xizmatlar

55

58

Aloqa



Noshirlik faoliyati

20

22

Axborot xizmati
ko'rsatish
sohasidagi faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion
dasturlar, fonogrammalar va
musiqali yozuvlarni ishlab chiqish

4

2

Dasturlar yaratish bo'yicha
faoliyat va teleko'rsatuv
va radioeshittirish



(2025- yil 1- fevral holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 129 ta yoki 74,6 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.


Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 93,6 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishidagi korxonalar soni 1,2 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 5,2 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni

(birlikda)



Yillar kesimida soni

(birlikda)



Sog'liqni saqlash
sohasidagi
faoliyat

162

Yashash uchun joy
bilan ta'minlangan
holda parvarishlash

2

Yashash uchun joy bilan
ta'minlanmagan
holda ijtimoiy
xizmatlar ko'rsatish

9

(2025- yil 1- fevral holatiga)

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**


Guliston sh.	67
Xovos	40
Yangiyer sh.	34
Sirdaryo	32
Mirzaobod	29
Sayxunobod	22
Boyovut	21
Oqoltin	14
Guliston	11
Sardoba	9
Shirin sh.	4

2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 2,6 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 72,1 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 23,0 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 4,9 foizni tashkil etgan.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



14

Pochta va kuryerlik



65

Omchor xo'jaligi va yordamchi
transport faoliyati



204

Quruqlikdagi va quvur transporti



Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiylumot

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quydagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Faoliyat ko'rsatayotgan
tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**

7 591

**mas'uliyati cheklangan
jamiyat**

85,7

874

xususiy korxonalar

9,9

256

oilaviy korxonalar

2,9

11

aksiyadorlik jamiyat

0,1

128

boshqalar

1,4

(2025- yil yanvar holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zları qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- fevral holatiga)

Amaldagi 8 860 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2025- yil 1- fevral holatiga ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 7 591 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirdorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 20,9 foiz, sanoat – 11,5 foiz, qurilishda – 8,4 foiz.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**




Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- fevral holatiga)

2025- yil 1- fevral holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqposlanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Guliston shahrida – 305 ta, Boyovut – 94 ta va Sirdaryoda – 88 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 373 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 102 ta, sanoat – 90 ta va qurilish sohasida – 84 ta.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025- yil 1- fevral holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025- yil 1- fevral holatiga ko'ra 256 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 33,2 foiz, sanoat – 27,3 foiz, savdoda – 26,2 foiz, hududiy kesimida esa eng ko'pi Guliston shahar – 24,2 foiz, Guliston – 16,0 foiz va Boyovut tumanida – 15,2 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



(2025- yil 1- fevral holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chujur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'naliishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Xovos (17,2 foiz), Sirdaryo (15,0 foiz) va Boyovut (14,9 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Dehqonchilik va
chorvachilik, ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish



Baliq ovlash
va akvakultura



O'rmonchilik
va yog'och tayyorlash


2

**Faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
(2025- yil 1- fevral holatiga)**

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'naliishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 203 ta korxonalardan 73 tasi qo'shma korxonalar va 130 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.


**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalar soni to'g'risida ma'lumotlar

(2025- yil 1- fevral holatiga)

Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida chet el investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Sirdaryo 24,6 foiz, Yangiyer shahar – 17,7 foiz, Guliston shahar – 13,3 foiz va Mirzaobodda – 8,9 foiz to'g'ri keladi.

qo'shma korxonalar

26

Sirdaryo

24

12

Guliston sh.

21

9

Yangiyer sh.

27

8

Mirzaobod

10

4

Xovos

12

4

Sardoba

1

xorijiy korxonalar

15

Boyovut

1

Sayxunobod

5

Guliston

7

3

Oqoltin


3

Shirin sh.

5

1

1



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2025- yil 1- fevral holatiga)

qo'shma korxonalar

xorijiy korxonalar



(2025- yil 1- fevral holatiga)

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 1,1 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 71 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 35,0 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 15,3 foiz), Turkiya (ulushi 13,3 foiz), Tojikiston (ulushi 6,4 foiz) va Qozog'iston (ulushi 5,9 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnomaga tusidagi avtomatlashirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016- yil 24- avgustdagি** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2025- yil 1- fevral** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



*Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.: 67 236-70-00*

PRESS-RELIZ

